



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

Xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning zamonaviy tendensiyalari

**MODULI BO'YICHA
O'QUV – USLUBIY
MAJMUUA**

2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“Xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning
zamonaviy tendensiyalari”**

**MODULI BO‘YICHA
O‘QUV–USLUBIY MAJMUA**

Toshkent – 2025

Mazkur modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “27” dekabrda 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va namunaviy dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: s.f.d., (DSc) professor H.I.Rajabov
s.f.n., dotsent U.I.Islombekov

Taqrizchilar: s.f.d., prof. N.K.Jo‘rayev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
s.f.d., prof. B.A.Amonov – O‘zbekiston Milliy universiteti.

*O‘quv-uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024- yil “29” noyabrda 4-sonli bayonnoma).*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	11
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	17
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	52
V. GLOSSARIY.....	69
VI.NAZORAT SAVOLLARI.....	78
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	81

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda

raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, siyosatshunoslik fanining zamonaviy muammolarini hal etish va amaliy yo'nalishlaridan foydalanish, xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning zamonaviy tendensiyalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“Siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar” yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;

-o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish;

“Siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar”yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- siyosatshunoslik fanining metodologik asoslari va zamonaviy yondashuvlarini;
- siyosiy yetakchilik va elitalar nazariyasini;
- siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlarning evolyutsiyasini;
- zamonaviy saylov tizimlari va elektoral jarayonlarni;
- O'zbekistonda demokratik islohotlarning zamonaviy bosqichini;

- siyosatshunoslikda yangi ilmiy paradigmalari va tadqiqot usullarini;
- demokratik jarayonlarning zamonaviy tendensiyalarini;
- zamonaviy xalqaro nizolar va ularni hal etish mexanizmlarini;
- zamonaviy diplomatiya: shakllari va usullarini;
- xalqaro ekologik muammolar va ularning siyosiy jihatlarini;
- xalqaro munosabatlar nazariyasi: asosiy tushunchalar va konsepsiyalarini;
- mintaqaviy xalqaro tashkilotlar faoliyati va ularning hamkorlik mexanizmlarini

bilishi kerak.

Tinglovchi:

- siyosiy konfliktologiya va mojarolarni boshqarish;
- fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish dinamikasidan foydalanish;
- siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlar evolyutsiyasining ahamiyatini ochib berish;
- zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining shakllanishi va rivojlanishini tahlil etish;
- siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalarining rolini asoslash;
- globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlarning transformatsiyasi sifatini baholash;
- BMT va uning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini tahlil etish va baholash **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- xalqaro siyosiy tizimda davlatlarning o'rni va rolini izohlash;
- xalqaro munosabatlarda madaniy-gumanitar hamkorlik ahamiyatini ochib berish;
- xalqaro munosabatlarda energetik omilning rolini asoslash;
- siyosiy yetakchilik va elitalar nazariyasini o'zlashtirish;
- milliy xavfsizlik va uning zamonaviy tahdidlari va uni aniqlovchi omillarni belgilash;
- xalqaro munosabatlarda madaniy-gumanitar hamkorlikni amalga oshirish;
- migratsiya jarayonlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'sirini aniqlash;
- xalqaro tashkilotlarning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rnini yoritib berish;
- siyosiy madaniyat va siyosiy ijtimoiylashuv jarayonlarini prognoz qilish usullari va mezonlarini qo'llash **malakalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- zamonaviy saylov tizimlari va elektoral jarayonlardan foydalanish;
- siyosiy mafkura va uning zamonaviy shakllarini qo'llash;
- siyosiy qarorlar qabul qilish mexanizmlari va texnologiyalarini qo'llay olish;
- xalqaro terrorizm va unga qarshi kurashning zamonaviy usullaridan

foydalanish;

- O‘zbekistonda demokratik islohotlarning zamonaviy bosqichining asosiy tamoyillarini amaliyotga tadbiq etish;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning siyosiy jihatlarini ochib berish;
- siyosiy jarayonlarni tadqiq etishning innovatsion usullaridan foydalanish;
- globallashtirish sharoitida davlat institutlari transformatsiyasini jahon siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlariga jiddiy ta’sirini tahlil qilish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

- Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning zamonaviy tendensiyalari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari”, Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” “Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari”, “Siyosatshunoslik fanining zamonaviy muammolari va amaliy yo‘nalishlari” mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida xalqaro munosabatlar nazariyasi: asosiy tushunchalar va konsepsiyalarini, BMT va uning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashdagi rolini va xalqaro iqtisodiy

munosabatlarning siyosiy jihatlaridan foydalanish va amalda qo'llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning zamonaviy tendensiyalari moduli bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi		
		Jami	jumladan	
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Xalqaro munosabatlar nazariyasi: asosiy tushunchalar va konsepsiyalari. Xalqaro siyosiy tizimda davlatlarning o'rni va roli.	4	2	2
2.	BMT va uning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi roli. Xalqaro terrorizm va unga qarshi kurashning zamonaviy usullari.	4	2	2
3.	Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning siyosiy jihatlar. O'zbekistonning tashqi siyosati va xalqaro hamkorlik yo'nalishlari.	6	2	4
4.	Xalqaro axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik masalalari. Migratsiya jarayonlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri.	4	2	2
	Jami:	18	8	10

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Xalqaro munosabatlar nazariyasi: asosiy tushunchalar va konsepsiyalari (2 soat).

Reja:

- 1.1. Xalqaro munosabatlar nazariyasi: asosiy tushunchalar va konsepsiyalari.
- 1.2. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining shakllanishi va rivojlanishi.
- 1.3. Globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlarning transformatsiyasi.

2-mavzu: BMT va uning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi roli (2 soat).

Reja:

- 2.1. BMT va uning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi roli.
- 2.2. Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar faoliyati va ularning hamkorlik mexanizmlari.
- 2.3. Xalqaro xavfsizlik masalalari va zamonaviy tahdidlar.

3-mavzu: Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning siyosiy jihatlari. (2 soat)

Reja:

- 3.1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning siyosiy jihatlari.
- 3.2. Xalqaro munosabatlarda madaniy-gumanitar hamkorlik.
- 3.3. Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy jarayonlar.

4-mavzu: Xalqaro axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik masalalari. (2 soat)

Reja:

- 4.1. Xalqaro axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik masalalari.
- 4.2. Xalqaro munosabatlarda energetik omilning roli.
- 4.3. Xalqaro ekologik muammolar va ularning siyosiy jihatlari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Xalqaro siyosiy tizimda davlatlarning o'рни va roli. (2 soat)

Xalqaro siyosiy tizimda davlatlarning o'рни va roli. Xalqaro tashkilotlarning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'рни.

2-amaliy mashg'ulot: Xalqaro terrorizm va unga qarshi kurashning zamonaviy usullari. (2 soat)

Xalqaro terrorizm va unga qarshi kurashning zamonaviy usullari. Zamonaviy diplomatiya: shakllari va usullari.

3-amaliy mashg'ulot: O'zbekistonning tashqi siyosati va xalqaro hamkorlik yo'nalishlari. (2 soat)

O'zbekistonning tashqi siyosati va xalqaro hamkorlik yo'nalishlari. Zamonaviy xalqaro nizolar va ularni hal etish mexanizmlari.

4-amaliy mashg'ulot: Migratsiya jarayonlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri. (2 soat)

Migratsiya jarayonlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri. XXI asrda xalqaro munosabatlarning rivojlanish istiqbollari.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“KWLH” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. KWLH:

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?

“KWLH” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak: -
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	4. Nimalarni bilib oldim: -

“W1H” metodi


Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	

What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



2.1-rasm.

“VEER” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish

shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

2.2-rasm.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish


“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod taʼlim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, oʻzlashtirish koʻrsatkichi va amaliy koʻnikmalarini tekshirishga yoʻnaltirilgan. Mazkur texnika orqali taʼlim oluvchilarning bilish faoliyati turli yoʻnalishlar (test, amaliy koʻnikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) boʻyicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg’ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o’rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg’ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o’z-o’zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o’qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o’quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo’shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to’g’ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



2.3-rasm.

“Insert” metodi

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o’qituvchi mashg’ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko’rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko’rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o’z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma’lumot.	
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	

“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1- Mavzu: Xalqaro vaziyatni tahlil qilish va baholashning zamonaviy qoidalari.

Reja:

1. Jahon va mintaqaviy miqyosda xalqaro vaziyatni tahlil qilishning zamonaviy jihatlari
2. Siyosiy va vaziyat tahlili tushunchasi
3. Tahlil usullari
4. Xalqaro vaziyatlarni tahlil qilishning ahamiyati.

"Tahlil" tushunchasi (yunoncha tarkibiy qismlarga bo'linish" so'zidan) keng ma'noda biror narsani ko'rib chiqish, o'rganish deb tushuniladi;

tor ma'noda - butunni uning tarkibiy elementlariga bo'lish, o'rganish ob'ektining tarkibi va xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo'lgan ilmiy tadqiqot usuli.

"Tahlil" tushunchasi ko'pincha "sintez" (yunoncha "bog'lanish, birikma" dan) tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi - hodisani uning qismlari birligi va o'zaro bog'liqligidagi o'rganish.

Sintez - bu tahlil natijasida olingan ma'lumotlarni bir butunga birlashtirish umumlashtirishdir.

Siyosiy tahlil - o'rganilayotgan ob'ektning tarkibiy qismlariga bo'linishini va bu qismlarning yangi bilim darajasida bog'lanishini birlashtirgan analitik jarayon.

Xalqaro siyosiy vaziyatni tahlil qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- uning ichki tuzilishi va tashqi aloqalari bilan tahlil qilinadigan vaziyat ssenariysini yaratish;
- ssenariy asosida ma'lum miqdordagi turli ekspert baholarini olish;
- ushbu baholashlarni tanqidiy umumlashtiruvchi yakuniy hujjat yaratish;
- qarorlar qabul qilish.

MDH mamlakatlaridagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat tahlili

Ittifoq parchalanganidan keyin postsovet hududida davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish juda dolzarbdir. Umuman olganda, postsovet makoniga SSSR tarkibiga kirgan barcha davlatlar kiradi. Mamlakatlar bir necha guruhlariga

bo'lingan, ya'ni Boltiqbo'yi mamlakatlari - Latviya, Litva, Estoniya; Janubiy Kavkaz mamlakatlari - Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya; Markaziy Osiyo davlatlari - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston; Sharqiy Yevropa davlatlari - Belarus, Ukraina, Moldova. Ularning aksariyati, Boltiqbo'yi mamlakatlari, Ukraina va Gruziyadan tashqari, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) a'zolaridir. Asosiy tashkilotlar:

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (EvrAzES) - bu umumiy tashqi bojxona chegaralarini shakllantirish, yagona tashqi iqtisodiy siyosat, tariflar va narxlarni ishlab chiqish va hokazolarni ishlab chiqish maqsadida tuzilgan xalqaro iqtisodiy tashkilotdir.

ODKB (KHSHT)

Markaziy Osiyo

Markaziy Osiyoda hal qilinmagan bir qancha mojarolar mavjud. Mamlakatlar o'rtasida bir-biriga nisbatan ko'plab hududiy da'volar shular jumlasidan. Mintaqadagi ikkita asosiy o'yinchi bor - Qozog'iston va O'zbekiston. Rossiya MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlarida faol rol o'ynashga harakat qilmoqda. Biroq, Xitoyning mavjudligi tufayli mintaqadagi avvalgi kuchli pozitsiyalarini asta-sekin yo'qotmoqda. Markaziy Osiyo davlatlarini tark etayotgan ruslar soni ortib bormoqda.

Rossiya Qozog'iston va O'zbekistonda o'z siyosiy mavqeini tobora yo'qotmoqda. Shu bilan birga, Rossiya Markaziy Osiyoning quyidagi davlatlari - Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda o'z harbiy ob'ektlariga ega. Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlarga baho berishda har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va shundan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarini bir-biriga yaqinlashtirish strategiyasini qurish zarur. Tashqi omil muhim ahamiyatga ega. AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, Eron va Turkiya kabi davlatlar Markaziy Osiyo makonida o'z manfaatlarini ko'zlammoqda. Yuqoridagi davlatlarning har biri o'z strategiyasiga amal qilgan holda va har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi vaziyatga ta'sir o'tkazishga harakat qilmoqda. Faqat Markaziy Osiyo davlatlarini o'z ichiga oladigan yagona tashkilot yo'q.

Transkavkaz

Rossiya Transkavkaz yo‘nalishida faol rol o‘ynashga harakat qilmoqda. Biroq, Gruziya bilan munosabatlar hozirda (xususan, 2008 yilgi urushdan keyin) ayniqsa qiyin bo‘lib qolmoqda. AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiya va Eron kabi tashqi o‘yinchi ham Janubiy Kavkaz mamlakatlarida o‘z e‘tiborini kuchaytirish choralari ko‘rmoqda. Eron va Turkiyaga kelsak, bu davlatlar uchun Kavkaz mintaqasining geosiyosiy ahamiyati nihoyatda muhim, chunki 20-asr boshlariga qadar Kavkazning ayrim qismlari bevosita Usmonlilar imperiyasi tarkibiga kirgan. Kavkaz xalqlarining Eron va Turkiyada o‘z diasporalari mavjud. Yevropa Ittifoqining mintaqaga qiziqishi ortib bormoqda. Yevropa davlatlari bu yerda o‘z ta‘sirini kengaytirishdan manfaatdor va uni energiya bozori, shuningdek, Kaspiy dengizi, Eron va Markaziy Osiyo resurslariga kirish imkonini beruvchi hudud sifatida ko‘rishadi. Shu maqsadda Yevropa Ittifoqi Janubiy Kavkaz mamlakatlariga yordam ko‘rsatishga yordam beradigan bir qator dasturlarni ishlab chiqmoqda va shu bilan ularni o‘zi uchun yanada bog‘laydi.

AQSh va NATO Janubiy Kavkaz mamlakatlariga, ayniqsa, mineral resurslariga borgan sari qiziqish bildirmoqda. Bundan tashqari, Qo‘shma Shtatlar Rossiyaning mintaqadagi ta‘sirini kamaytirishga harakat qilmoqda. Mintaqada yonayotgan asosiy mojarolardan biri Tog‘li Qorabog‘ masalasidir. Uning tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi, ammo bugungi kungacha bu hudud atrofidagi vaziyat keskinligicha qolmoqda. Mojaro davlatlararo mojarodir. Mojaroni hal qilish bo‘yicha prognozlarga kelsak, ular juda xayoliy va bu masala bo‘yicha yagona yechim hali ishlab chiqilmagan.

Yevropadagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat

Yevropa qit‘asi rivojlanishining asosiy tendensiyalarini baholashda uning xavfsizligiga tahdid va tahdidlarga e‘tibor qaratish lozim. Yevropaning og‘riqli nuqtalari Bolqon (Kosovo va Serbiya muammolari). Yevropa va Yevropa Ittifoqi xavfsizligi uchun yana bir xavf - bu uning a‘zolarining ulkan iqtisodiy nomutanosibligi. Bu nomutanosiblik global moliyaviy inqiroz boshlanishi bilan yanada yaqqol namoyon bo‘ldi. Yana bir muammo - noqonuniy migratsiya. Boshqa tomondan, hozirgi vaqtda

Yevropa atrofidagi harbiy vaziyat nisbatan barqaror. Bu osoyishtalikning ma'lum kafolati Yevropa davlatlarining NATOga a'zoligi bilan ta'minlanadi. Umuman olganda, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamisha NATOdan ham, AQShdan ham mustaqil ravishda o'z tashqi siyosati va xavfsizligini yaratishga intilib kelgan. 90-yillarning boshidan boshlab Yevropa Ittifoqi a'zo mamlakatlarning birgalikdagi siyosiy faoliyatini shakllantirishning faol jarayonini boshdan kechirdi.

Bunday urinishlar 20-asrning 50-yillarida amalga oshirilgan, ammo faol jarayon 70-yillarda boshlangan. 1990-yillarning boshlariga kelib, Yevropa Ittifoqining iqtisodiy integratsiya sohasidagi muvaffaqiyatlari mustaqil harbiy-siyosiy loyihalari uchun mustahkam poydevor yaratdi. Umumiy tashqi va xavfsizlik siyosatini shakllantirish Maastrixt shartnomasi (1993 yil 1 noyabrda kuchga kirgan) bilan boshlangan. Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqi xalqaro xavfsizlik siyosatini ishlab chiqmoqda va dunyoning turli burchaklarida tinchlikparvar operatsiyalarni olib bormoqda.

Yaqin Sharqdagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat va mintaqadagi xavfsizlik muammolari

- Yaqin Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat
- “Arab bahori” – sabablari, oqibatlari
- Iroq omili. Yaqin Sharq mintaqasi xavfsizligi
- Eron yadro dasturi va uning mintaq xavfsizligiga ta'siri
- Eron va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi mintaqadagi raqobat
- Yaqin Sharq mojarosi: sabablari, hozirgi holati, mumkin bo'lgan yechimlar
- AQSh, Fransiya va Buyuk davlatlarning manfaatlari.

Yaqin Sharqdagi aksariyat mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyat murakkab. Arab davlatlari, bir tomondan, G'arb sanoat mahsulotlari va texnologiyalarining iste'molchisi bo'lsa, ikkinchi tomondan, sarmoya manbai hisoblanadi.

G'arb bilan elektr energetikasi, atom energetikasi va qayta tiklanadigan energetika, sanoatning turli tarmoqlari, metallurgiya, harbiy-texnika sanoati, suv xo'jaligi, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud.

“Arab bahori” - bu hodisaning sababi mamlakatlar fuqarolarining o‘z davlatlari rahbariyatidan noroziligi edi. Umuman olganda, “arab bahori” atamasi 2010-yil 18-dekabrda arab dunyosida boshlangan namoyishlar va noroziliklarning inqilobiy to‘lqinidir.

Tunis va Misrda inqiloblar sodir bo‘ldi; Liviyada rejimning qulashiga olib kelgan fuqarolar urushi; Bahrayn, Suriya va Yamandagi fuqarolar qo‘zg‘olonlari; Jazoir, Iroq, Iordaniya, Marokash va Ummonda ommaviy norozilik namoyishlari va Quvayt, Livan, Mavritaniya, Saudiya Arabistoni, Sudan va G‘arbiy Sahroda kichikroq norozilik namoyishlari. 2011-yil may oyida Isroil chegarasidagi to‘qnashuvlarga ham mahalliy “Arab bahori” sabab bo‘lgan edi. Bugungi kunda Yaqin Sharqdagi mojarolarning jiddiy omillaridan biri Iroq va Suriyadir. Bu mamlakatlardagi inqiroz nafaqat mintaqaviy mojaro, balki global miqyosdagi inqiroz ekanligi mutlaqo aniq. 2012 yil oxirida Amerika qo‘shinlari Iroqdan olib chiqilgach, bu mamlakat dunyo ommaviy axborot vositalarining doimiy e‘tiboridan chetda qoldi. Biroq, Iroqdagi urush aslida tugamaydi. G‘arb qayta-qayta e‘lon qilgan demokratiyaning o‘rnatilishi amalga oshmadi.

Kurdlar va sunniylarning shialarning hamma narsaga qodirligiga dosh berishni istamasliklari tufayli parlament falaj bo‘lib qoldi. Sudlar ham to‘liq ijro hokimiyati nazorati ostida bo‘lib, uning tanqidchilarining hech biri ustidan kechiktirmasdan hukm chiqaradi. Erkin ommaviy axborot vositalari deyarli yo‘q va halol ishlashga harakat qilayotgan jurnalistlar o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yadi. Iroq OAV xodimlarining xavf darajasi bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Aslini olganda, amerikaliklar Saddam Husaynning millatchi diktaturasini ag‘darib, shia-kleptokratik diktaturani tug‘dirdilar. Ulardan qaysi biri yomonroq, albatta, iroqliklar hukm qiladi, lekin bir narsani aniq aytish mumkin: Saddam davrida ko‘chalar hozirgidan ancha xavfsizroq edi. Iroqning amaldagi bosh vazirining qudratli hukmdor bo‘lish istagi mahalliy sunniylarning qattiq qarshiliklariga duch keldi. Umuman olganda, AQSh qo‘shinlarining olib chiqilishi Iroqdagi zo‘ravonliklarning tez o‘shishining asosiy sabablaridan biri bo‘ldi. Suriyadagi urush ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi.

G'arb davlatlarining Suriya muxolifatiga yordam berish istagi uni Iroq yashirin tuzilmalari bilan hamkorlik qilishiga olib keldi. Suriya uchun bu hamkorlikning samarasi "An-Nusra fronti" va "Suriya davlati" hududidagi "Islomiy davlat" kabi radikal guruhlar (IShID) bo'ldi. Shimoliy Arabistondagi kurd muammosi hal etilmagan va nihoyatda murakkabligicha qolmoqda. Eslatib o'tamiz, kurdlarning Iroqda hozir bo'lishi faqat rasmiyatchilikdir. Kurdiston-Turkiya neft quvurining qurilishi bilan birlashgan Iroq qiyofasini saqlab qolish zarurati endi kerak emas. Iroq hukumati sunniy arablar bilan to'qnash kelganda kurdlar o'zlarining ma'muriy chegaralarini Iroqning qolgan qismi bilan yopishlari mumkin. Agar bu mojaro Suriya qo'zg'oloniga xos xususiyatga ega bo'lsa, Iroq Kurdistonining mustaqilligi deyarli oldindan aytib bo'lmaydigan voqelikka aylanadi.

Vaziyatni Iroqning e'lon qilingan federalizatsiyasi yemas, balki real federalizatsiyasi, shialar, sunniylar va kurdarga maksimal vakolatlar berilishi, shuningdek, hukumatning mamlakatni boshqarishning avtoritar usullaridan butunlay voz kechishi orqali saqlab qolish mumkin edi. Mintaqadagi eng muhim o'yinchilardan biri Erondir. YaIM bo'yicha u dunyoda o'n beshinchi o'rinni egallaydi va Yaqin Sharq davlatlari orasida eng katta hisoblanadi. Yeron neft zaxiralari bo'yicha Saudiya Arabistonidan keyin ikkinchi o'rinda turadi va mamlakatda yadroviy tadqiqotlar olib borilmoqda. Eronning zaif tomonlari 1979-yilda unga nisbatan kiritilgan sanksiyalar bo'lib, u aloqalar va eng yangi texnologiyalarga kirishni cheklaydi. Yuqori ishsizlik va inflyatsiya ham mamlakat uchun katta muammo hisoblanadi. Eron shia davlatidir. Yaqin Sharq yadroviy qurollarning tarqalishi tahdidlari nuqtai nazaridan dunyoning eng xavfli mintaqalaridan biri hisoblanadi. Bu yerda yadro qurolini tarqatmaslik rejimi allaqachon buzilgan. Bunga Yaqin Sharqdagi ko'plab hal etilmagan mojarolar sabab bo'ldi, ular orasida arab-isroil mojarosi markaziy o'rinni egallaydi.

Isroilning yadro quroliga ega bo'lishi musulmon dunyosidagi qator davlatlar xavfsizligiga tahdid solmoqda. O'z navbatida, tinch maqsadlarda atom energetikasini rivojlantirishga qaratilgan Eronning yadroviy salohiyati ham Isroilning ambitsiyalarini to'xtatuvchi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan yadroviy qurol yaratish imkoniyatini istisno etmaydi. Jahon hamjamiyati tomonidan Eron yadroviy dasturiga

qarshi joriy qilingan sanksiyalarga Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi konvensiyani buzganlik ayblovlari qo'shildi. Shunga qaramay, Eron 2010 yil fevral oyida o'zini yadroviy davlat deb e'lon qildi. Eron yadro dasturidan tashqari koinot sohasida ham muvaffaqiyatga erishmoqda. Shunday qilib, Eron o'zining kosmik agentligi va kosmodromiga ega. Kosmosga bir nechta raketa uchirildi. Eron kabi yirik o'yinchidan tashqari, mintaqada Yaqin Sharqda yetakchi o'rinlar uchun Eron bilan raqobatlashadigan yana bir davlat bor. Bu Saudiya Arabistoni qirolligi.

Saudiya Arabistoni mintaqaviy va global miqyosda muhim siyosiy va iqtisodiy salohiyatga ega yetakchi arab davlatlaridan biridir. Qirollik Fors ko'rfazining energiya resurslarini jahon bozoriga yetkazib beruvchi asosiy davlat hisoblanadi. Saudiya Arabistonining afzalliklari orasida yirik neft va gaz zaxiralari va yetarlicha rivojlangan qayta ishlash sanoati mavjud. Bundan tashqari, Saudiya Arabistoni yillik katta daromad keltiradigan ziyoratchilar mamlakati hisoblanadi. Saudiya Arabistonining zaif tomonlari - ta'lim sohasi (kasb-hunar ta'limi rivojlanmagan), ijtimoiy turmush darajasi (ishsizlik), ko'pchilik iste'mol tovarlari va sanoat xom ashyosining importi. Saudiya Arabistoni, sunniy davlat, islom dunyosining markazidir, chunki uning hududida islomning eng muhim ziyoratgohlari Makka va Madina joylashgan. Saudiya Arabistoni AQShning Yaqin Sharqdagi eng muhim strategik hamkori, eng yirik neft va gaz yetkazib beruvchisi, boshqa tomondan esa AQShdan qurolli yordam oladi. Saudiya Arabistonining tashqi siyosati qirollikning Arabiston yarim orolida islomiy davlatlar va neft yeksport qiluvchi davlatlar orasida ustuvor mavqeini saqlab qolishga qaratilgan.

Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat

Mintaqadagi hozirgi vaziyat

- Xitoy pozitsiyasi
- Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyodagi xalqaro vaziyat
- Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat
- Yaqin Sharqdagi hozirgi xalqaro vaziyat.
- Siyosiy uchburchak – mintaqada Eron, Turkiya va Saudiya Arabistoni.

Osiyodagi zamonaviy siyosiy jarayonga qit'aning yetakchi davlatlari: Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Hindiston, Indoneziya, Filippin, Turkiya, Eron, Saudiya Arabistoni, Qatar, BAAdagi jadal iqtisodiy o'sish katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda Osiyo mamlakatlari jahon mahsulotining yarmidan ko'prog'ini ishlab chiqaradi, Xitoy va Yaponiya kabi davlatlar esa sayyoramizning iqtisodiy rivojlangan beshta davlati qatoriga kiradi. Bir qator Osiyo davlatlari tashqi siyosatini amalga oshirishda zamonaviy qurolli kuchlarga tayanadi. Ular orasida Xitoy, Rossiya, Shimoliy Koreya, Hindiston, Isroil va Pokiston yadro quroliga ega, Yaponiya va Eron esa ularni ishlab chiqishga yaqin.

Osiyoning xalqaro miqyosdagi nufuzi yuksalib bormoqda, bu uning tashqi siyosatida muhim resurs hisoblanadi. Osiyo davlatlarining siyosiy modernizatsiyasi va salmoqli resurs bazasi faol tashqi siyosatni amalga oshirishga, qit'a ichida ham, undan tashqarida ham xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonning eng muhim vazifalaridan biri uning dunyo miqyosida kengayishidir. Bugungi kunda Osiyo davlatlari o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqib, o'zaro manfaatli munosabatlarni iqtisodiyot, xavfsizlik, madaniyat, ta'lim, turizm va hokazo sohalarda qurishga intilmoqda. Lekin eng ko'p muammolar tashqi siyosatda. G'arbiy Osiyo va birinchi navbatda Yaqin Sharq davlatlari. Mintaqada siyosiy modernizatsiya jarayoni sekin kechmoqda. Tarixiy shakllangan turmush tarzining konservativ tendensiyalari islom tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanadi. Mintaqada faqat Isroil, Turkiya, Livan, Kipr Respublikasi va Iroq dunyoviy deb tasniflanishi mumkin.

Yaqin Sharqdagi qolgan 10 ta davlat konstitutsiyaviy monarxiya, Eron esa diniy davlatdir. "Arab bahori" G'arbiy Osiyodagi siyosiy jarayonlarni ancha faollashtirdi, lekin u odamlar hayotida katta o'zgarishlar keltirmadi. Mintaqa davlatlarining tashqi siyosatida uning AQSh va G'arb davlatlaridan mustaqil bo'lishiga erishish, mustahkam tinchlik o'rnatish, mintaqada va xalqaro maydonda mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish boshqa dolzarb muammolardandir. G'arbiy Osiyo davlatlari o'z xalqlari manfaati yo'lida tashqi siyosatni faol va samarali olib borish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq ijobiy jarayonga dunyoning yetakchi davlatlarining mintaqadagi manfaatlari to'sqinlik qilmoqda. Yaqin Sharq 3 ta jahon dinlari - islom,

nasroniylik va iudaizmning markazi, mineral energetika resurslariga eng boy mintaq va turizm imkoniyatlari. Ushbu resurslar uchun kurash bugungi kunda davlatlar tomonidan siyosiy modernizatsiyani amalga oshirishda, iqtisodiy taraqqiyot va mintaqada tinchlik o'rnatishda salbiy omil hisoblanadi. Shu munosabat bilan mintaqada zamonaviy davlatchilikning rivojlanishi va faol iqtisodiy hayot haqida gapirishga asos yo'q, demak, G'arbiy Osiyo davlatlarining konstruktiv tashqi siyosati haqida gapirishning hojati yo'q.

2-Mavzu: Xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro tashkilotlarning roli. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda BMT faoliyati.

REJA:

1. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda xalqaro tashkilotlarning transformatsiyasi
2. BMT Nizomi va xalqaro xavfsizlik tamoyillari
3. BMTning sanksiyalar siyosati va uning samaradorligi
4. BMTning ixtisoslashgan muassasalari faoliyati
5. Global boshqaruv tizimida BMTning kelajagi

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro tashkilotlar muhim o'rin tutib, ular davlatlararo hamkorlikning institutsional mexanizmlari sifatida faoliyat yuritmoqda. Ikkinchi jahon urushidan so'ng tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) global xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning markaziy institutiga aylandi. Bugungi kunda BMT 193 ta a'zo davlatni birlashtirgan holda, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, global muammolarni hal etish kabi keng ko'lamli vazifalarni bajarmoqda.

Xalqaro xavfsizlikni ta'minlash borasida BMT o'ziga xos vakolatlarga ega bo'lib, uning Xavfsizlik Kengashi orqali qabul qilinadigan qarorlar barcha a'zo davlatlar uchun majburiy kuchga ega. Tashkilot o'z faoliyati davomida 70 dan ortiq tinchlikni saqlash operatsiyalarini amalga oshirgan, yuzlab xalqaro mojarolarni tinch yo'l bilan hal etishga hissa qo'shgan va global xavfsizlikka tahdid soladigan muammolar - terrorizm, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi, iqlim o'zgarishi,

pandemiya kabi masalalarda xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirib kelmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro munosabatlardagi murakkab jarayonlar BMT tizimini isloh qilish va uning samaradorligini oshirish masalasini kun tartibiga qo'yimoqda.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda xalqaro tashkilotlarning transformatsiyasi murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda:

Birinchidan, xalqaro tashkilotlarning soni va turlari sezilarli darajada o'sdi. 1909 yilda 37 ta hukumatlararo tashkilot mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023 yilga kelib ularning soni 350 dan oshdi, nodavlat xalqaro tashkilotlar soni esa 50,000 dan ortiqni tashkil etmoqda. Bu o'sish ayniqsa iqtisodiy integratsiya sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, mintaqaviy iqtisodiy bitimlar soni 1990 yildagi 50 tadan 2024 yilga kelib 350 tadan oshdi. Shuningdek, yangi turdagi tashkilotlar, masalan BRIKS (2023 yilda 5 ta a'zodan 11 tagacha kengaydi), ShHT (2001 yilda 6 ta a'zodan 2023 yilda 9 tagacha), ASEAN+3 kabi formatlar paydo bo'ldi.

Ikkinchidan, an'anaviy xalqaro tashkilotlarning faoliyat yo'nalishlari va vakolatlari kengaymoqda. Masalan, Jahon banki dastlab faqat qayta tiklash va rivojlanish uchun kreditlar bergan bo'lsa, bugungi kunda iqlim o'zgarishi, ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamli transformatsiya kabi sohalarda ham faol ishtirok etmoqda. 2020-2023 yillarda COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashish uchun Jahon banki 157 milliard dollardan ortiq mablag' ajratdi. NATO ham o'z faoliyatini an'anaviy harbiy-siyosiy sohadan kiber xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash, iqlim o'zgarishi kabi yangi yo'nalishlarga kengaytirmoqda.

Uchinchidan, xalqaro tashkilotlar faoliyatining institutsional mexanizmlari ham o'zgarmoqda. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanishi xalqaro tashkilotlar ishini transformatsiya qilmoqda. Masalan, Xalqaro valyuta fondi blokcheyn texnologiyasini o'rganish uchun maxsus dastur ishga tushirdi, BMT esa 2021 yilda sun'iy intellekt bo'yicha global markazini ochdi. Shuningdek, nodavlat aktorlar, xususiyl sektor va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik kuchaymoqda. 2023 yilda Davos forumida 1000 dan ortiq yirik korporatsiya va 100

dan ortiq davlat vakillari ishtirok etdi. BMTning barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda 12,000 dan ortiq kompaniya ishtirok etmoqda.

To'rtinchidan, global boshqaruv tizimida mintaqaviy tashkilotlarning roli kuchayib bormoqda. Yevropa Ittifoqi 2021 yilda "Yangi avlod Yel" dasturi doirasida 750 milliard yevrolik tiklanish fondini tashkil etdi. ASEAN mamlakatlari YaIM hajmi 2000 yildagi 615 milliard dollardan 2023 yilda 3.6 trillion dollargacha o'sdi. Afrika Ittifoqi 2063 yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasini qabul qilib, qit'a integratsiyasini chuqurlashtirmoqda. Bu jarayonlar global va mintaqaviy darajadagi boshqaruv tizimlari o'rtasidagi muvozanatni o'zgartirmoqda.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda BMT Nizomi va xalqaro xavfsizlik tamoyillari jiddiy sinovlarga duch kelmoqda. BMT Nizomida belgilangan kuch ishlatmaslik, davlatlar suveren tengligi va ichki ishlarga aralashmaslik kabi asosiy tamoyillar bugungi kunda yangicha talqin etilib, ularning amaliyotdagi tatbiqi borasida turli bahs-munozaralar davom etmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda Ukraina mojarosi, Suriya fuqarolik urushi va boshqa mintaqaviy nizolar bu tamoyillarning samaradorligi masalasini ko'tarmoqda.

BMT Xavfsizlik Kengashi xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning asosiy mexanizmi sifatida faoliyat yuritmoqda. Biroq, doimiy a'zolarning veto huquqidan foydalanishi va Kengash tarkibining zamonaviy geosiyosiy realliklarga mos kelmasligi uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2020-2024 yillar davomida qabul qilingan 250 dan ortiq rezolyusiya va amalga oshirilayotgan 12 ta tinchlikni saqlash operatsiyasiga qaramay, global xavfsizlik muammolari saqlanib qolmoqda.

Xalqaro xavfsizlik tushunchasi ham sezilarli darajada kengayib, an'anaviy harbiy tahdidlardan tashqari iqtisodiy, ekologik, oziq-ovqat va kiber xavfsizlik kabi yo'nalishlarni qamrab olmoqda. COVID-19 pandemiyasi, iqlim o'zgarishi va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq yangi tahdidlar BMT tizimining moslashuvchanligini sinovdan o'tkazmoqda. Bu esa xalqaro xavfsizlik tamoyillarini zamon talablariga moslashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda BMT tizimini isloh qilish, uning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish va moliyalashtirish tizimini qayta ko'rib chiqish masalalari kun

tartibiga qo'yilmoqda. Xavfsizlik Kengashi tarkibini kengaytirish, qaror qabul qilish jarayonlarini demokratlashtirish va BMTning preventiv diplomatiya salohiyatini kuchaytirish kabi takliflar muhokama qilinmoqda. Bu islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan yetakchi davlatlarning siyosiy irodasi va xalqaro hamjamiyatning hamkorligiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan qo'llaniladigan sanksiyalar xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi harakatlarga qarshi kurash vositasi sifatida faoliyat yuritmoqda. 1966 yilda Rodeziyaga nisbatan qo'llanilgan birinchi sanksiyalardan boshlab, 2024 yilga kelib BMT 14 ta davlat va bir qator norasmiy guruhlariga nisbatan sanksiyalar rejimini joriy etgan. Bu choralar qurollarga embargo, moliyaviy cheklovlar, savdo taqiqlari, sayohat cheklovlari va maqsadli sanksiyalarni o'z ichiga oladi. Masalan, Shimoliy Koreya, Eron, Liviya kabi davlatlarga nisbatan kompleks sanksiyalar qo'llanilmoqda.

Sanksiyalarning samaradorligi turli omillarga bog'liq bo'lib, ularning ijrosi va ta'siri bir xil emas. Masalan, Liviya nisbatan 1992-2003 yillarda qo'llanilgan sanksiyalar mamlakatni terrorizmni qo'llab-quvvatlashdan voz kechishga majbur qilgan bo'lsa, Eron va Shimoliy Koreyaga nisbatan joriy etilgan sanksiyalar kutilgan natijani bermayapti. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2023 yillar davomida sanksiyalarni chetlab o'tish holatlari 30%ga oshgan. Bunda raqamli valyutalar, offshor sxemalar va vositachi kompaniyalardan foydalanish holatlari ko'paygan.

So'nggi yillarda BMT "aqlli sanksiyalar" konsepsiyasiga o'tmoqda, bunda aniq shaxslar, tashkilotlar yoki sohalarga qaratilgan maqsadli cheklovlar qo'llaniladi. 2023 yilda BMT sanksiyalar ro'yxatida 1200 dan ortiq shaxs va 400 dan ortiq tashkilot mavjud. Sanksiyalarni monitoring qilish va ularning samaradorligini oshirish uchun maxsus ekspert guruhlari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, sanksiyalarning gumanitar oqibatlarini yumshatish, ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish borasida yangi yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

BMTning ixtisoslashgan muassasalari global boshqaruv tizimining muhim elementlari sifatida faoliyat yuritib, turli sohalarda xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtirmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) COVID-19

pandemiyasi davrida o'zining kuchli va zaif tomonlarini namoyon etdi - bir tomondan global sog'liqni saqlash tizimini muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynagan bo'lsa, boshqa tomondan qaror qabul qilish tezligi va shaffofligi borasida tanqidlarga uchradi. Xalqaro valyuta fondi (XVF) va Jahon banki esa global moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va rivojlanayotgan davlatlarni qo'llab-quvvatlashda faol bo'lsada, ularning kredit siyosati va shartlari ko'pincha bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.

YuNESKO madaniy meros, ta'lim va ilm-fan sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lib, 2023 yilga kelib 1154 ta ob'ektni Jahon merosi ro'yxatiga kiritgan. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) mehnat standartlarini ishlab chiqish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) esa ochlik va oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini hal etishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirmoqda. Biroq, bu tashkilotlarning byurokratik tizimi, moliyalashtirish mexanizmlari va qaror qabul qilish jarayonlarining samaradorligi masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy tahlillar BMTning ixtisoslashgan muassasalari faoliyatini takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Birinchidan, tashkilotlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish, ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, uchinchidan esa moliyalashtirish tizimini diversifikatsiya qilish talab etilmoqda.

BMTning global boshqaruv tizimidagi kelajagi haqida gap ketganda, tashkilotning yutuqlari va kamchiliklarini xolis baholash muhim. BMT o'zining 75 yillik faoliyati davomida uchinchi jahon urushining oldini olish, dekolonizatsiya jarayonlarini tinch yo'l bilan amalga oshirish, inson huquqlarini himoya qilish tizimini yaratish kabi muhim yutuqlarga erishdi. Ayniqsa, barqaror rivojlanish maqsadlari doirasidagi faoliyat, gumanitar yordam dasturlari va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash borasidagi sa'y-harakatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanmoqda.

Biroq, BMTning hozirgi tuzilishi va faoliyat mexanizmlari zamonaviy xalqaro munosabatlar talablariga to'liq javob bermayotgani tanqid qilinmoqda. Xavfsizlik Kengashidagi veto huquqi ko'pincha muhim qarorlar qabul qilinishini bloklab qo'ymoqda - masalan, 2011-2024 yillar davomida 45 marta veto huquqi qo'llanilgan.

Byurokratik tizimning og'irligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi (2024 yil byudjeti 3.4 milliard dollar) va qaror qabul qilish jarayonlarining sekinligi tashkilot samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kelajakda BMTning roli va ahamiyati yanada ortishi kutilmoqda, chunki global muammolar - iqlim o'zgarishi, pandemiyalar, kiber xavfsizlik, sun'iy intellekt texnologiyalari bilan bog'liq tahdidlar xalqaro hamkorlikni talab etadi. BMT bu borada noyob imkoniyatlarga ega - universal a'zolik (193 davlat), keng tarmoqli institutsional tizim va xalqaro huquqiy baza. Shuningdek, yangi avlod texnologiyalarini joriy etish, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali tashkilot o'z faoliyatini modernizatsiya qilmoqda.

BMTning kelajakdagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning islohotlar dasturini amalga oshira olishiga bog'liq. Xavfsizlik Kengashini kengaytirish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. "Our Common Agenda" doirasida 2024-2030 yillarga mo'ljallangan islohotlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi BMTning global boshqaruv tizimidagi yetakchi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

"Our Common Agenda" - BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish tomonidan 2021 yil sentyabrda taqdim etilgan strategik hisobot bo'lib, u global hamkorlikning yangi dasturini belgilab berdi. Hisobotda 12 ta asosiy yo'nalish bo'yicha 90 dan ortiq taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Bular orasida global sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, raqamli hamkorlik platformasini yaratish, yoshlar va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilish, yangi global ijtimoiy shartnomani shakllantirish kabi ustuvor vazifalar mavjud. Dastur doirasida 2023 yilda "Kelajak sammiti" (Summit of the Future) o'tkazilgan bo'lib, unda 2045 yilgacha bo'lgan davrda (BMTning 100 yilligiga qadar) global hamkorlikning yangi formatlari, BMT tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro munosabatlarning yangi me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish masalalari muhokama qilingan. 2024 yil holatiga ko'ra, dasturning dastlabki natijalari sifatida "Bizning umumiy kelajagimiz uchun yangi kun tartibi" (New Agenda for

Peace) va Raqamli hamkorlik bo'yicha global bitim (Global Digital Compact) loyihalari ishlab chiqilmoqda.

BMT siyosiy arboblarni nigozida

BMT faoliyati doimo turli siyosatchilar va davlat arboblarning e'tibor markazida bo'lib kelgan. AQSh prezidenti Donald Tramp 2019 yilda BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida: "Kelajak globalistlarga emas, vatanparvarlarga tegishli. BMT o'z byudjetining katta qismini samarasiz sarflamoqda va tashkilot tubdan isloh qilinishga muhtoj", deb keskin tanqidiy fikr bildirgan. Rossiya Prezidenti Vladimir Putin esa 2023 yilda: "BMT Xavfsizlik Kengashi G'arb davlatlari manfaatlariga xizmat qiluvchi qurolga aylanib qolgan", degan bahoni bergan.

Germaniya kansleri Olaf Shols 2024 yilda: "BMT global tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning yagona universal mexanizmi bo'lib qolmoqda. Biz uni yanada kuchaytirishimiz va modernizatsiya qilishimiz kerak". Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron esa: "BMT tizimi ko'p tomonlama hamkorlikning eng samarali platformasi. Uning isloh qilinishi zarur, lekin bu jarayon evolyusion yo'l bilan amalga oshirilishi kerak" deb ta'kidlagan. BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan (1997-2006) o'z xotiralarida: "BMT mukammal tashkilot emas, lekin u insoniyat ixtiro qilgan eng yaxshi vositadir", degan fikrni bildirgan.

Rivojlanayotgan davlatlar vakillari ham BMT faoliyati haqida turli fikrlarni bildirmoqda. Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi: "BMT Xavfsizlik Kengashi tarkibi zamonaviy geosiyosiy realliklarni aks ettirmaydi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari kengashda yetarlicha vakillikka ega emas". Janubiy Afrika Respublikasi Prezidenti Siril Ramafoza esa: "BMT tizimi global Janub manfaatlarini hisobga olgan holda qayta qurilishi kerak. Rivojlanayotgan davlatlar ovozi ko'proq eshitilishi lozim", degan pozitsiyani ilgari surgan.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari ham BMT faoliyatiga o'z munosabatlarini bildirgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida: "BMT mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biz tashkilotning mintaqamizdagi faoliyatini yanada kuchaytirish tarafdorimiz", degan fikrni bildirgan. Qozog'istonning sobiq prezidenti Nursulton

Nazarboev esa: “BMT tizimi global muammolarni hal etishda o‘zining samaradorligini isbotlagan, lekin yangi davrning talablariga moslashishi zarur”, deb ta’kidlagan.

2020-2024 yillar oralig‘ida BMT bosh assambleyasi doirasida eng ko‘p muhokama qilingan masalalar

BMT Bosh Assambleyasining 2020-2024 yillardagi sessiyalarida bir qator global ahamiyatga molik masalalar muhokama qilindi. Eng ko‘p e’tibor qaratilgan yo‘nalishlar quyidagilar bo‘ldi: COVID-19 pandemiyasi bilan kurashish, global sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlash va vaksinalarga teng imkoniyatli kirish masalasi. Bu borada “COVAX” tashabbusi doirasida 2021-2023 yillarda 2 milliarddan ortiq vaksina dozalari taqsimlandi. Shuningdek, pandemiyadan keyingi tiklanish strategiyalari va global sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish masalalari keng muhokama qilindi.

Ikkinchi ustuvor yo‘nalish - Ukraina inqirozi bo‘ldi. 2022 yil fevraldan boshlab Bosh Assambleya bu masala bo‘yicha 15 dan ortiq rezolyusiya qabul qildi, jumladan, hududiy yaxlitlik, tinchlik o‘rnatish mexanizmlari va gumanitar yordam masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, Rossiya-Ukraina mojarosining global oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri, “Qora dengiz don tashabbusi” kabi masalalar ham ko‘p marta ko‘rib chiqildi.

Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq masalalar ham doimiy muhokama mavzusiga aylandi. 2021 yildagi COP26 va 2022 yildagi COP27 sammitlari natijalari, Parij bitimi majburiyatlarining bajarilishi, iqlim moliyalashtirish masalalari va “yashil energetika”ga o‘tish strategiyalari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, BMTni isloh qilish masalasi, xususan "Our Common Agenda" doirasidagi tashabbuslar, Xavfsizlik Kengashini isloh qilish, moliyaviy tizimni takomillashtirish va raqamli transformatsiya masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, Yaqin Sharqdagi vaziyat, G‘azo sektori inqirozi, Afg‘onistondagi gumanitar vaziyat, yadro qurollarini tarqatmaslik, sun’iy intellekt texnologiyalari bilan bog‘liq xavfsizlik masalalari ham keng muhokama qilingan mavzular qatoriga kiradi.

Alohida e’tibor “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga erishish borasidagi progress, 2030 yilgacha bo‘lgan kun tartibining amalga oshirilishi, kambag‘allikni

qisqartirish va ta'lim sohasidagi global hamkorlik masalalariga qaratildi. 2023 yilda o'tkazilgan SDG sammiti doirasida bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni jadallashtirish bo'yicha yangi majburiyatlar qabul qilindi.

Eng ko'p muhokama qilingan mavzular:

- Ukraina inqirozi va uning oqibatlari;
- Demografik o'zgarishlar va aholi o'sishidagi muammolar;
- Iqlim o'zgarishi va atrof-muhit muammolari;
- Bolalar huquqlari;
- Xalqaro migratsiya.

3-Mavzu: Mintaqaviy va Global munosabatlarni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

REJA:

- 1. Xalqaro munosabatlar tizimida kechayotgan zamonaviy tendensiyalar**
- 2. Geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida mintaqaviy va global munosabatlarni shakllantirishning zarurligi**
- 3. Xalqaro tuzilmalar, nodavlat va notijorat tashkilotlarining yangi dunyo tartibotidagi o'rni**

Xalqaro munosabatlar nazariyasida bugungi kunda «tashqi siyosat» termini bilan bir qatorda «xalqaro siyosat» tushunchasi ishlatilmoqda. Xalqaro munosabatlarning sub'ektlari, ishtirokchilari soni ko'paymoqda, ularda davlatlar bilan bir qatorda hukumatlararo tashkilotlar, siyosiy partiyalar va harakatlar ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslar aktiv rol o'ynamoqdalar. Ilmiy adabiyotda xalqaro siyosat tushunchasi hali ishlab chiqilmagan, shuning uchun «xalqaro munosabatlar», «xalqaro siyosat», va «tashqi siyosat» tushunchalaridan bir xil ma'noda foydalaniladi.

Xalqaro munosabatlar - davlatlar o'rtasidagi, davlatlararo tashkilotlar, partiyalar, turli davlatlarning hususiy kishilari o'rtasidagi aloqalarning yig'indisidir xalqaro munosabatlar doirasida tashqi va xalqaro siyosatning prinsiplari amalga oshiriladi. Mashhur fransuz sotsiologi R.Aron yozadi: «Xalqaro munosabatlar - siyosiy bo'laklar,

yaxlitliklar o'rtasidagi munosabatlardir. Siyosiy birlik tushunchasi o'z ichiga grek polislarini. Rim yoki misr imperiyasini, shuningdek yevropa monarxiyasini, burjua respublikalarini va xalq demokratiyasini oladi... Xalqaro munosabatlarda davlatlar o'rtasidagi munosabatlar ustunlikka ega. Xalqaro munosabatlarning so'zsiz misoli bo'lib shartnomalar hisoblanadi». R.Aronning fikricha, xalqaro munosabatlarda uning ishtirokchilari o'rtasida konsensus (kelishuv) bo'lmaydi, xalqaro munosabatlar - tabiiy xolat bo'lib, uning ishtirokchilarining xulq-atvorini oldindan bilib bo'lmaydi.

Lekin hozirgi kunda xalqaro munosabatlar ishtirokchilarining kengayganligi kuzatilmoqda. Mashhur amerikalik tadqiqotchi D.Rozenau fikricha, xalqlar va jamiyatlarning o'zaro bog'liqligining kuchayishi shunga olib keldiki, xalqaro munosabatlarda asosiy faoliyatni davlat emas. konkret shaxs va individlar olib boradilar. Bu yondashuv ham qiziq, lekin uni xalqaro munosabatlarning mohiyatini ochib beradi deb hisoblash noto'g'ri xalqaro munosabatlar bugungi kunda o'tish xolatida turibdi. Bunda yangi hamjamiyatning shakllanish jarayoni kuchaymoqda va o'z ichiga - o'zaro manfaatlarni hisobga olgan holda hamkorlikni kengaytirishni oladi.

Bu tendensiyalar muayyan xalqaro va tashqi siyosat o'ynamoqda. Tashqi siyosat - davlatning o'z milliy chegaralari tashqarisidagi faoliyatidir. Xalqaro siyosatning asoslari faqatgina individlar yoki davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar emas, balki davlat manfaatlarini amalga oshirish bo'yicha har qanday faoliyat turi va o'zaro ta'sir hamdir.

Bunday xalqaro siyosatning timsoli Yevropa hamjamiyati (hozirda Yevropa ittifoqi). YeS ishtirokchilari o'z ekologik, siyosiy manfaatlarini va ahloqiy qadriyatlari tizimini himoya qilish vazifalarini ham qilish uchun tashqi dunyo bilan munosabatlarda kuchlarini birlashtirdilar. YeS mamlakatlari dunyoning hamma rayonlaridagi inson huquqlarini himoya qilish tarafdoridir, ular BMTni to'la qo'llab quvvatlaydilar, kollektiv xavfsizlik sistemasi zarurligini anglaydilar, baxslarni tinch yo'l bilan xal qilish zarur deb hisoblaydilar.

Yevropa xavfsizligi muammoalri bo'yicha bunday xamkorlik Yevropaning tashqi siyosat sohasidagi o'xshashligi, birligining rivojlanishiga olib keladi. Bu mamlakatlar o'z xavfsizligining texnologik va industrial sharoitlarini ta'minlashga harakat qiladilar.

Yig'indida bu mamlakatlar aholi soniga ko'ra dunyoda (Hindiston va Xitoydan keyin) 3-o'rinda turadi, yalpi milliy maxsulot miqdoriga ko'ra 2-o'rinda, hamda tashqi savdo va rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam hajmi bo'yicha - 1 o'rinda turadi.

Albatta, Yevropa mamlakatlarining xalqaro siyosati. YeI - ushbu xududning barqarorligining muhim omilidir. Yevropa Ittifoqining xalqaro siyosatida muammolar ko'p, uning doirasida ittifoqning yetakchi institutlarini shakllantirish va mustahkamlash jarayonlari ketayapti. Shunday bo'lsa ham birlashtiruvchi aloqalarning mavjudligi ushbu Ittifoqni o'rab turuvchi har bir davlatning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatadi.

Endi ichki va tashqi siyosat haqida. Ba'zi bir mualliflar ichki va tashqi siyosatning o'zaro aloqadorligini xalqaro munosabatlar nazariyasining asosiy masalasi deb hisoblaydilar. Haqiqatan ham, ichki va tashqi siyosatning o'zaro bog'liqligi muammosi bugungi muammodir. XX asrning 1-yarmida yirik tarixchilardan biri - Leopold va davlatning ichki tuzumiga belgilovchi ta'siri tarafdori bo'lgan. Undan ham ilgari, XIX asr oxirida avtriyalik sotsiolog L.Gumplovich shunday degan edi - davlatning ichki taraqqiyoti va uning tarixi butunligicha tashqi kuchlarning taraqqiyoti bilan belgilanadi va unga nisbatan xizmat qiluvchi rol o'ynaydi.

Bu qarashlar geosiyosiy konsepsiyalarda davom ettiriladi. Bu konsepsiyalarning mualliflari fikricha, xalqaro munosabatlar nizomi xarakterga ega. Urush, ularning fikricha, tuproq unumdorligining noteng taqsimlanganligi, xalqlarning noteng joylashtirilganligi va boshqa sharoitlar oqibatidir. Shu sharoitlar u yoki bu davlatlarning jahon siyosatidagi hukmronlik rolini ta'minlaydi. Shu yerdan urush va kuchdan foydalanishi siyosatning zarurligi kelib chiqadi. Bu narsa xalqaro siyosatni kuch yordamida kurash yoki kuch uchun kurashga teng qilib qo'ydi. «Xalqaro siyosat, - deb yozadi mashhur amerikalik sotsiolog G.Morgentau, - kuch-qudrat uchun kurashdir. Xalqaro siyosatning absolyut maqsadlari qanday bo'lmasin, kuch uning bevosita maqsadi hisoblanadi». Siyosat uning bevosita maqsadi hisoblanadi. Siyosat uning 2 tomoni - ichki va tashqi siyosatning ajralmas birinchi bo'lgani uchun, ichki siyosat - kuch uchun kurash bo'lsa, tabiiyki ikkisi ham kuch xarakteriga ega bo'lishi

kerak. Demak, tashqi siyosat xalqaro sahnada kuch-quvvat imkoniyatlariga ega bo'lishiga qaratilgan faoliyat bo'liishi kerak ekan.

Ichki va tashqi siyosatning o'zaro aloqadorligini tahlil qilishdagi 2 yondashuv asosida xalqaro munosabatlar va jamiyat ichidagi munosabatlarning teng huquqligiga, o'zaro bog'liqligiga asoslangan konsepsiya yotadi. Bunda gap davlat taraqqiyotining ichki va tashqi omillarining o'zaro aloqadorligi haqida ketadi. Aniq-tarixiy sharoitda u yoki bu omil ustun turishi mumkin.

Shuni aytish lozimki, tashqi omillar har qanday mamlakatning ichki ijtimoiy munosabatlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu narsa ekologik va xom ashyo muammolarining keskinlashuvi, dunyoning turli xududlarida ijtimoiy tenglikning buzilishi, kam rivojlangan mamlakatlarning og'ir ahvoli uchun xalqaro hamjamiyat mas'uliyatining kuchayishi bilan bog'liq. Amerikalik olim P. Gurevich ichki ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qiluvchi 4 omilni ishlab chiqdi.

- 1) harbiy intervensiya;
- 2) aralashuv;
- 3) xalqaro iqtisod;
- 4) davlatlarning xalqaro sistemasi.

Tabiiyki, ushbu tipologiya ichki ijtimoiy munosabatlarga tashki ta'sirlarning serkirraligini kamrab ololmaydi, lekin bunday ta'sirning ahamiyati kuchlidir. Muayyan tarixiy sharoitda ichki siyosat tashki siyosatga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, Amerika prezidenti Vudro Vilsonning tashki siyosati jaxon hamjamiyatining yutuklari va talafotlari bilan bog'lik edi.

Vudro Vilson Monroning izolyatsion doktrinasini «yangi diplomatiya» konsepsiyasi bilan almashtirdi va muayyan muvaffaqiyatga erishdi - millatlar ligasi barpo etildi, uning ustavi qabul qilindi. Lekin amerika jamiyatining o'zi o'sha davrda o'z izolyatsion siyosatidan voz kechishga tayyor emas edi. AQSh senati millatlar hamjamiyati haqidagi pakti rad qildi, pakt zarur 2/3 ovozni ololmadi. Navbatdagi prezidentlik saylovlarida V.Vilson muvaffaqiyat qozonmadi, yangi prezident-respublikachi U.Garding esa an'anaviy tashki siyosatga qaytdi.

Xalqaro munosabatlardagi o‘zaro aloqalarda nima birlashchi va muxim ekanligi haqidagi masala dialektik va tarixiy xarakterga ega. Shu bilan birga xalqaro amaliyotining umumiy prinsiplarini ochib berishni takozo qiladi. Dj.Rozenau yozishiga, xalqaro munosabatlarni o‘rganishdagi asosiy muammo - empirik materialning kamligi emas, balki nazariyaning yo‘qligidir. O‘zaro bog‘lik dunyo taraqqiyotining xozirgi boskichi siyosiy jarayonni, xalqaro siyosatni anglashda katta talablar qo‘ymoqda.

II. Xalqaro munosabatlar taraqqiyotidagi asosiy yo‘nalishlar.

XIX asrning oxirlarida L.Tumplovich «kuch» konunlari sistemasiga ta’rif berishga harakat qildi. Uning fikricha, xalqaro hayotning asosiy konuni-qo‘shni davlatlar o‘rtasida o‘z chegaralari ustidan, sababli doimiy kurashlaridir.

«Ikkilamchi» qonunlar shu asosiy qonuniyatdan kelib chiqadi. Har bir davlat o‘z kudratini o‘stirishga harakat qilishi kerak, bundan esa «ikkilamchi qonun» kelib chiqadi - xar bir davlat o‘zidan kuchliroq ko‘shnisining taraqqiy etishiga tustinlik qiladi, siyosiy muvozanatni saqlab qolishga harakat qiladi. Boshqa «ikkilamchi qonun»ga ko‘ra har bir davlat o‘ziga foydali yutuqqa erishishga harakat qiladi, ya’ni «har bir davlat dengizga intiladi va dengiz kudratiga hamda u bilan bog‘lik barcha narsaga ega bo‘lishga harakat qiladi». 3-qonunning mazmuni shundan iboratki, ichki siyosat «harbiy kudrat»ni o‘stirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda qonunlarning bu tizimi bilan butunlay kelishish mumkin emas. Shuni ham aytish kerakki, 2 xutbli (bipolyarnyy) dunyo shu qonunlardan ozuka olardi, 2 kutb o‘rtasidagi kurash xalqaro siyosatning asosini tashkil qilar edi. Bugun bipolyar dunyo tarqab ketdi va xalqaro hamjamiyatning ko‘p kirali shakllanayotganligi haqida gapirish mumkin. Bu narsa G‘arbiy Yevropa, Yaponiyada iqtisodiy va siyosiy aktivlik markazlarining shakllanishi bilan tasdiqlanmoqda. Ko‘p kutblilik «uchinchi dunyo»ning yaxlitligi bilan ham isbotlanmoqda. Ziddiyatliligiga qaramay 3-dunyo jahon siyosati saxnasida mustaqil amaldagi siymo bo‘lib qolmoqda. Uni o‘tmish, koloklik, chetda ekanlik birlashtiradi.

Ikki kutbli siyosatning barbod bo‘lishi yangi qonunlarga bo‘lgan kizikishni kuchaytirib yubordi. Antik davlatlardayoq insonlararo urug‘, umuminsoniy

hamjamiyat haqidagi g'oya vujudga kelgan edi. Bunday takliflar Sukronning jaxon fuqarosi haqidagi muloxazalarida uchraydi. Bu yondashuvlar o'zaro bog'liklik yoki transnatsional nazariyalar uchun shart-sharoit tug'dirdi. Bu nazariyalarda xalqaro munosabatlar taraqqiyotidagi zamonaviy yo'nalishlar xisobga olingan.

Transnatsional yondashuvda davlatlarning o'zaro xalqaro faoliyatning bir qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda boshqaruvga xalqaro institutlar, xalqaro huquq manfaatlar guruxi, sport, cherkov va boshqa tashkilotlar jalb qilingan. Xalqaro hayotda ijtimoiy hayotdan farkli o'laroq hokimiyat va boshqaruvning markaziy o'zagi yo'q, balki politsentrizm hukm suradi. Politsentrizm sharoitida esa stixiyali jarayonlar va sub'ektiv omillar kuchli rol o'ynaydi. Lekin shunga qaramay, xalqaro munosabatlar taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari qonuniyat tusini olgan. Xozirgi ijtimoiy hayot 2 o'zaro bog'lik jarayonni o'z ichiga oladi:

bir tomondan, bu-turli mamlakatlarda iqtisod, madaniyat, siyosatning umumiy belgilarini qaytarishdir;

ikkinchi-tomondan, yaxlit jaxon hamjamiyatining shakllanishidir.

Sanab o'tilgan qonuniyatlar turli tarixiy sharoitlarda xukm suradi va bu sharoit ularning faoliyatida iz qoldiradi, lekin bu qonuniyatlarni inokr etmaydi.

Hozirda 2 sistemaning xarbiy-siyosiy ustunligiga asoslangan dunyodan yangi jaxon tartibiga o'tilmoqda. Dunyodagi barkarorlikni ta'minlovchi eski mexanizmlar o'lib bormoqda, yangilari esa endigina shakllanmoqda. Bu sharoitlarda alohida davlatlarning «egoizmi» va «individualizmi»ning o'simini payqabolish qiyin emas. Lekin shu bilan birga xalqaro munosabat ishtiroqchilarining o'zaro ta'siri kuchaymoqda, birlashtiruvchi jarayonlar rivojlanmoqda. Bularning hammasi xalqaro siyosatning demokratlashuviga olib kelmoqda. Mamlakatlarning o'zaro bog'liqligi ularda umumiy manfaatlarining paydo bo'lishi, davlatlarning yaqinlashuvi bilan xarakterlanmoqda. Urush-siyosatning vositasi sifatida boshqatdan ko'rib chiqilmoqda.

Xalqaro munosabatlarning demokratlashuvi bilan ularning insonparvarlashuvi, umumiy tinchlik ta'minlash muammosi kelib chiqadi. Tinchlik uchun kurashda maqsadlar ham, vositalar ham uzviy bog'liq. Xalqaro siyosatdagi asosiy narsa - inson ongini dushman qiyofasi bilan bog'liq stereotiplardan xalos qilishdir. Xalqaro siyosat

insonlarni ularning millati, davlati, sinfidan qat'iy nazar birlashtirishi kerak. Doimiy insoniy qadriyatlar hali ham eskirmagan. Inson baxtini zo'rlik bilan qurib bo'lmaydi, yaxshilikni esa kuch bilan tarqatib bo'lmaydi. Xalqaro siyosatda, buguni kunda, ahloqiy prinsiplarga alohida ahamit berilmoqda.

Umuminsoniy qadritlardan chekinish an'anaviy tashqi siyosatda doimo yuz berar edi. G'oyaviy, mafkuraviy munosabatlar davlatlarni qarama-qarshi sistemalarga ajratar edi, xalqaro munosabatlar esa kelishuvsiz konfrontatsiyadan iborat edi. Xalqaro munosabatlarining deideologizatsiyasi yangi insonparvar qadriyatlarning ustun qo'yilishiga olib keldi.

Xalqaro siyosatning eng yaqin vazifasi: xalqaro xavfsizlik sistemasini barpo qilishdir. Bu sistema ishonch va tinchlikka asoslanishi kerak hamda yadro qurolidan ozod, zo'ravonlik, qo'rquvdan holi dunyoni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

2 vazifa - insonning xavfsizligi va himoyalanganligini ta'minlashdir. Xalqaro huquq prinsiplari va normalari har bir sub'ekt uchun yo'llanma bo'lib xizmat qilishi kerak. Hozirda davlatlararo munosabatlarni tashkil etishning shunday bir shakli zarurki, bu tashkilot davlatlararo nizolarni yechishga yordam berishi, ularning paydo bo'lishining oldini olishi kerak. I.Kantning fikricha, insoniyatning asosiy vazifasi - umumiy huquqiy fuqarolik jamiyatiga erishishdir. Bunda gap davlatlarning jahon hamjamiyati haqida ketadi, ya'ni xalqlar davlati oxir oqibatda yer yuzining barcha xalqlarini qamrab oladi va jahon federatsiyasiga aylanadi.

Hozirda milliy siyosat iqtisodiy kuch-qudratni, siyosiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Ko'pgina sohalarda uncha katta bo'lmagan davlatlar ilgarigiga nisbatan katta imkoniyatlarga ega. Kuchga bog'liq bo'lmagan yangi strategiyaning muvaffaqiyatini quyidagi 4 tendensiya belgilaydi:

Birinchisi - aloqa va transport texnologiyasidagi o'zgarishlardir. Ular revolyusion effekt berdi. Transport va aloqa vositalarining arzonlashuvi jahon bozorlarida inqilob yasadi va transnatsional korporatsiyalarning taraqqiyotini kuchaytirdi. Jahon savdosi jahon ishlab chiqarishiga nisbatan o'sib ketdi. Yevropa valyutasining ekspansiyasi milliy hokimiyatlarni o'z kapital bozorlarini nazorat qilishi qobiliyatidan mahrum qildi.

Ikkinchisi - zamonaviylashuv urbanizatsiya jarayonlaridir. Ular hokimiyatni hukumatlardan sub'ektlarga sari taqsimlamoqda.

Uchinchisi - tendensiya xalqaro darajada hokimiyatlarning qayta taqsimlanishi - zaif davlatlarning kuchayishi.

Borgan sari ko'p mamlakatlar qurollarining murakkab sistemalarini ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar: 20 mamlakat ximiyaviy qurol ishlab chiqarishga qodir, 3 dunyoning 15 mamlakati 2 mingginchi yilgacha shaxsiy ballistik snaryadlarni chiqarishlari mumkin. Atom bombasiga ega bo'lgan 5 ta davlatga qo'shimcha ravishda bugungi kunda Hindiston, Pokiston, Isroil, Esaf, Braziliya, Argentina atom bombast ishlab chiqarishi imkoniyatiga ega. Ba'zi bir boshqa mamlakatlar bu darajaga 10 yil ichida erishishlari mumkin. Yadro quroliga ega bo'lish albatta ularni umumiy hukmronlikka ega qilmaydi, lekin muayyan xudud ichida ularning qudratini mustahkamlaydi.

Tendensiya buyuk davlatlarning atrof muhit ahvolini nazorat qilish imkoniyatlarining qisqarganligidan iborat. O'sib boruvchi ekologik muammolar uchun kollektiv faoliyat va davlatlarning hamkorligi zarur. Bu esa iqtisodiy o'zgarishlar, epidemiyalar. Narkotiklarni noqonuniy savdosi, terrorizmga ham tegishli, chunki bu muammolar transnatsionaldir. Nizolar esa avvalambor kelishuv va muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi kerak.

Davlatlar va mintaqalarning xalqaro tashkilotlardagi ishtirokiga kelsak, bu yerda muhim xususiyatni ta'kidlash kerak: davlatlar o'zlari xalqaro (hukumatlararo) tashkilotlarni yaratadilar. Aynan davlatlar ularga ma'lum huquq va majburiyatlarni berib, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sub'ekti bo'lishlariga imkon beradi. Mintaqalar xalqaro tashkilotlarda faqat davlatlarning ruxsati bilan ishtirok etishi mumkin, agar ichki qonunchilik ularga ruxsat bersa, va faqat mahalliy va mintaqaviy hokimiyat manfaatlarini himoya qilish uchun davlatlar tomonidan tuzilgan xalqaro tashkilotlar va ularning tuzilmalarida, masalan, Yevropa Ittifoqida.

Umuman olganda aytishimiz mumkinki, xalqaro munosabatlar va xalqaro mintaqaviy aloqalar ko'p umumiy va o'ziga xos jihatlarga ega. Umumiy xalqaro munosabatlarni xalqaro munosabatlarning bir qismi sifatida ko'rib chiqishga imkon

beradi. Umumiy narsa shundaki, har ikkala holatda ham ushbu sub'ektlarning xalqaro maydondagi iqtisodiy, huquqiy, madaniy-gumanitar va boshqa o'zaro ta'sirlari yig'indisini aks ettiruvchi xalqaro faollik mavjud bo'lib, u o'zining xalqaro faoliyatida ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi - xalqaro hujjatlarni imzolash, xorijiy vakolatxonalarni ochish, diplomatiyadan xalqaro faoliyat vositasi sifatida foydalanish, xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish. Biroq, farqlar ro'yxati kengroq.

1. Turli aktorlar. Xalqaro munosabatlarning asosiy ishtirokchilari davlatlardir. Hech kim ularni yaratmaydi, ular xalqaro sahnada tabiiy tarixiy jarayon natijasida paydo bo'ladi. Xalqaro mintaqalararo munosabatlarning asosiy ishtirokchilari davlatlar mintaqalaridir. Ular davlatlar tomonidan yaratilgan va ma'lum huquq va majburiyatlarga ega, jumladan va xalqaro sohada.
2. Xalqaro yuridik shaxslar. Davlatlar xalqaro munosabatlarning asosiy ishtirokchilari bo'lib, xalqaro huquqning asosiy sub'ektlari sifatida ham harakat qiladilar. Xalqaro maydonda davlat "bir ovoz" sifatida harakat qiladi va o'z mintaqalarining xalqaro faoliyati uchun to'liq javobgardir.
3. Xalqaro faoliyat mazmuni - davlatlar xalqaro munosabatlarni, mintaqalar esa xalqaro munosabatlarni amalga oshiradilar. Mintaqalar xalqaro munosabatlarga faqat o'z davlatining ruxsati bilan kirish huquqiga ega. Aynan shu narsa ularga ma'lum vakolatlarni beradi. Mintaqalar siyosiy aloqalarni amalga oshira olmaydi; bu davlatning vakolatidir.
4. Xalqaro hujjatlarning turi va mazmuni - davlatlar muayyan xalqaro munosabatlarga kirishib, xalqaro shartnomalarni, mintaqalar - xalqaro shartnomalarni imzolaydilar.
5. Xorijiy vakolatxonalarning turlari va vazifalari - xalqaro munosabatlarni amalga oshiruvchi davlatlar chet ellarda diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalari va xalqaro tashkilotlar huzurida vakolatxonalar ochadilar. Ularning barchasi ma'lum huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, tegishli funksiyalarni bajarish uchun yaratilgan. Xalqaro aloqalarni amalga oshiruvchi hududlar mintaqalar vakolatiga kiradigan masalalarni hal qiluvchi xorijiy vakolatxonalarni ochadi. Ularning faoliyati hududlar hisobidan moliyalashtiriladi.
6. Xalqaro munosabatlarni amalga oshiruvchi davlatlar diplomatiyadan xalqaro faoliyatning asosiy vositasi sifatida foydalanadilar. Xalqaro aloqalarni amalga oshiruvchi mintaqalar faqat xalq diplomatiyasiga murojaat qilishlari mumkin.
7. Xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish turi. Davlat o'zining siyosiy, harbiy,

iqtisodiy va boshqa maqsadlaridan kelib chiqib, hukumatlararo xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish yoki nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish huquqiga ega. Buning uchun davlatning o'zi va tegishli xalqaro tashkilotning qarori yetarli.

Hududlar xalqaro tashkilotlarga faqat o'z davlati ruxsati bilan va faqat mintaqaviy rivojlanish masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar a'zo bo'lishi mumkin. 8. Davlatlarning xalqaro munosabatlari xalqaro ommaviy huquq bilan tartibga solinadi. Mintaqalarning xalqaro munosabatlari ichki huquq, xalqaro huquq (davlat yoki xususiy), bir nechta davlat qonunlari bilan tartibga solinishi mumkin, ba'zan esa ular bir vaqtning o'zida ham xalqaro, ham ichki huquq bilan tartibga solinadi. 9. Davlatlar davlatlar, ularning mintaqalari va xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro munosabatlarga kirishishi mumkin. Hududlar xorijiy davlatlar, ularning mintaqalari, mahalliy hokimiyat organlari, xalqaro tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar bilan xalqaro munosabatlarga kirishishi mumkin. Shunday qilib, xalqaro munosabatlar ishtirokchilari doirasi xalqaro munosabatlarga qaraganda kengroq bo'lishi mumkin.

4-Mavzu: Xalqaro xavfsizlikni ta'minlash muammolari

REJA

- 1. Zamonaviy dunyoda xavfsizlik masalasiga doir qarashlar**
- 2. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashga to'siq bo'luvchi omillar**
- 3. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga erishish yo'llari**

Zamonaviy dunyoda xavfsizlik global muammo sifatida ikki jihatdan namoyon bo'ladi: birinchisi jahon hamjamiyatining umumiy xavfsizligi va shaxs xavfsizligi.

Jahon hamjamiyatining xavfsizligi muammosi tinchlikni saqlash va saqlash, nizolar avj olishi va mahalliy urushlarning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha xalqaro siyosat, ommaviy qirg'in qurollari va an'anaviy qurollarni qisqartirish, ayrim turdagi qurollarni taqiqlash va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Shaxs xavfsizligi muammosi quyidagi shart-sharoitlarni ta'minlashni o'z ichiga oladi:

- shaxsiy erkinlik; (kosmopolitizm)

- shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qilish va himoya qilish;
- insonning davlat siyosati va mahalliy boshqaruv jarayonlarida ishtirok etish imkoniyati;
- tinchlikning davlat va xalqaro kafolatlari, hayotni ta'minlash resurslaridan foydalanish (shu jumladan, mehnat, sog'liqni saqlash va ta'lim);
- yashash va ko'payish uchun qulay muhit.

Dunyoda odamlarning xalqaro, milliy, jamoat va shaxsiy xavfsizligi sohasidagi muammolar turli miqyosdagi va xarakterdagi xavf va tahdidlarni keltirib chiqarmoqda.

Global darajada bular:

- xalqaro siyosiy keskinlik va geosiyosiy kuchlar o'rtasidagi nizoli holatlar;
- qurollanish poygasi va strategik qurol zaxiralarini qisqartirish bo'yicha xalqaro dasturlar bo'yicha qabul qilingan qarorlarning to'liq amalga oshirilmasligi;
- millatlararo, diniy va madaniyatlararo ziddiyatlar;
- xalqaro terrorizm;
- noqonuniy (nolegitim) siyosiy tartibotlar;
- dunyo mintaqalari va mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutning mavjudligi, ortib borishi.

Shaxsiy darajada, zamonaviy global dunyoda insonning shaxsiy xavfsizligiga quyidagilar tahdid soladi:

- ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik omillari;
- davlat ichidagi millatlararo, diniy va madaniyatlararo nizolar;
- jinoyat (birinchi navbatda uyushgan jinoyatchilik);
- jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya;
- inson huquqlarining buzilishi, uning demokratik va shaxsiy erkinliklarini cheklash;
- hayotiy resurslar va mablag'larning mavjud emasligi;
- qoniqarsiz ijtimoiy va ekologik yashash sharoitlari.

Insonning xavfsizligini himoya qilish va ta'minlash bo'yicha tadbirlar odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlatning huquqni muhofaza qilish faoliyati;

- fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlari bo'yicha faoliyati;
- sog'liqni saqlash va kasalliklarning oldini olish sohasidagi faoliyat;

So'nggi bir necha yil ichida global xavfsizlik muammosi uning belgilarining keng ko'lamli va keskin namoyon bo'lishi (yadroviy kuchlar o'rtasidagi geosiyosiy keskinlik; mahalliy qurolli mojarolar va fuqarolar urushlari; terrorchilarning faolligi) tufayli boshqa global muammolar qatorida yana yuqori o'rinni egalladi. Shu bois global xavfsizlik muammosini hal qilish bo'yicha takliflar bugungi kunda har qachongidan ham dolzarbdir.

Xalqaro xavfsizlik - bu barcha davlatlar tomonidan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalariga rioya qilishga asoslangan xalqaro munosabatlar tizimi bo'lib, ular o'rtasidagi bahsli masalalar va kelishmovchiliklarni kuch yoki tahdid bilan hal qilishni istisno qiladi.

Xalqaro xavfsizlik tamoyillari quyidagilarni nazarda tutadi:

- tinch-totuv yashashni davlatlararo munosabatlarning universal tamoyili sifatida ma'qullash;
- barcha davlatlar uchun teng xavfsizlikni ta'minlash;
- harbiy, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarda samarali kafolatlar yaratish;
- koinotda qurollanish poygasining oldini olish, barcha yadroviy qurol sinovlarini to'xtatish va ularni butunlay yo'q qilish;
- har bir xalqning suveren huquqlarini so'zsiz hurmat qilish;
- xalqaro inqirozlar va mintaqaviy mojarolarni adolatli siyosiy jihatdan hal etish;
- davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash;
- xalqaro terrorizmning oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish;
- genotsidni, aparteidni yo'q qilish;
- xalqaro amaliyotdan diskriminatsiyaning barcha shakllarini chiqarib tashlash, iqtisodiy blokadalar va sanksiyalarni rad etish;
- barcha davlatlar uchun teng iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlaydigan yangi iqtisodiy tartibotni o'rnatish.

Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

- manfaatdor davlatlar o'rtasida o'zaro xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ikki tomonlama shartnomalar;
- davlatlarning ko'p tomonlama ittifoqlarga birlashishi;
- xalqaro xavfsizlikni saqlash uchun jahon xalqaro tashkilotlari, mintaqaviy tuzilmalar va institutlarning faoliyat yuritishi;
- xalqaro siyosiy tartibni quolsizlantirish, demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, xalqaro munosabatlarda qonun ustuvorligini o'rnatish.

“Xalqaro xavfsizlik” konsepsiyasini ishlab chiqish. Eng umumiy shaklda xalqaro xavfsizlikning zamonaviy tushunchasi BMTni tashkil etish davrida ushbu tashkilot Nizomining birinchi moddasida shakllantirilgan bo'lib, uning asosiy vazifasini belgilaydi: “1. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash va shu maqsadda tinchlikka tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish, tajovuzkorlik harakatlar yoki boshqa tinchlik buzilishining oldini olish bo'yicha samarali kollektiv choralarni ko'rish va adolat va xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq tinch yo'l bilan amalga oshirish. qonun, xalqaro nizolarni yoki tinchlikni buzishga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni hal qilish.

